

**THE YIELD OF BIEBERSTEINIA MULTIFIDA DC. SEEDS IN EXPERIMENT
AND IN NATURE.**

Islamova Zebiniso Bustonovna

Samarkand State University e-mail: Zebo.oy@mail.ru ph.: +998913137139

Annotation: Phytochemical analysis of *Biebersteinia multifida* DC. has shown that this plant is a promising medicinal plant, which is considered a valuable raw material for the pharmaceutical industry and is widely used in folk medicine for the treatment of various diseases. The planting rate of *B. multifida* per 1 ha is determined at 8.0 – 8.5 kg. Seeds (on average 992.5 kg) obtained from 8-9 years of cultivation of cante steam can be sown on an area of about 125 hectares.

Keywords: Qontepar, *Biebersteinia multifida* D.C, yield, fruits, seeds, phytocenosis, experimental field, nature, Urgut, Samarkand, Aman-kutan, traditional medicine, pharmacy, diseases, medicine.

**BIEBERSTEINIA MULTIFIDA NING TAJRIBADA VA TABIATDA URUG'
HOSILDORLIGI.**

Annotatsiya: Qonteparning fitokimyoviy tahlili shuni ko'rsatdiki ushbu o'simlik farmatsevtika sanoati uchun qimmatbaho xomashyo hisoblanib, xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda keng qo'llaniladigan istiqbolli dorivor o'simlikdir.

B. multifida ning 1 ga maydondagi ekish normasi 8,0 – 8,5 kg (PUH) ligi aniqlandi. Madaniylashtirilgan qonteparning sakkiz - to'qqizinchı yilidan olinadigan urug'ni (o'rtacha 992,5 kg) qariyb 125 ga maydonga ekish mumkin. Tajriba maydonida o'simlik tuplari soni ko'pligi, agrotexnika ishlovlari hisobidan ancha yuqoriligi kuzatildi.

Kalit so'zlar: Qontepar, *Biebersteinia multifida* D.C, hosildorlik, ko'sak meva, urug', fitosenoz tajriba maydoni, tabiat, Urgut, Samarqand, Omon qo'ton, xalq tabobati, farmatsevtika, kasallik, tibbiyat.

Hosildorligi haqidagi ma'lumotlarni o'rganish o'simlikni tabiatdan qanday ratsional foydalanish imkonlari borligini ochib berishga ko'maklashishi bilan birga effektli foydalanish imkonlarini ochib beradi. Tajriba maydonidagi hosildorligini aniqlash esa, o'simlikning foydali tomonlarini, iqtisodiy rentabelligini hamda introduksion effektliliginı ochib berib, tabiatdagi biotsenoziar populyatsiyalarini saqlanib qolishiga va barqaror bo'lishiga ko'maklashadi.

Mevasidagi urug'larining sutlik davrida ularning rangi oqimtir – sarg'ish-yashil bo'ladi, keyinchalik pishib to'liq yetilgandan keyin esa, to'q – jigar rang, kulrang tusga aylanadi. To'liq pishib yetilgan urug'lar ancha yirik, urug'larining to'lishish davri aprelning oxiri may oyida bo'lib o'tadi.

1-rasm. *Biebersteinia multifida* ning urug'ining tuzilishi.



May oxirlarida iyun oylarida vegetasiya davrining tugashi hamda ko'saklarining chatnash davriga to'g'ri keladi. Pishib yetilgan urug'lari kulrang - to'q - jigarrang ko'rinishga ega. Bitta ko'sakda 1 - 5 dona urug'larni hosil qildi. Bir urug'ning diametri 4,5 - 5,6 mm, 1000 dona urug' 18 - 22 gr ni tashkil etib, aprel - iyun oylarida urug'lari pishib yetiladi. Ko'saklar chatnaydi lekin urug'lar atrofga birdaniga to'kilmaydi ko'sakda anchagacha turadi.

1 – jadval

Biebersteinia multifida ning urug' hosildorligi (PUM) tabiatda va tajriba maydonchasida (n=10)

O'sish joyi va sharoiti	Tajriba o'tkazilgan vaqtি	bir tupda urug'lar massasi gr	1 ga. dan urug' hosildor ligi, kg
Tabiat, Olichabuloq soy	2021	4,24	9,752
	2022	4,11	8,631
Tabiat, Toksoy	2021	4,51	8,569
	2022	3,33	5,661
Tabiat, Yettiulyisoy	2021	1,88	1,692
	2022	1,76	1,232
Tabiat, Qumbelsoy	2021	2,36	3,068
	2022	2,48	2,728
Umumiy, ja'mi - tabiat o'rtacha	2021 – 2022	3,22	4,830
Tajriba, Om'onqo'ton milliy tabiat bog'i	2020	3,25	780,0
	2021	3,69	922,5
	Iyun, 2022	4,98	1294,8
Umumiy, ja'mi – tajriba o'rtacha	2020, 2021, 2022	3,97	992,5

1 – jadvalda qonteparning urug' hosildorligi keltirib o'tilgan. Tabiatda ushbu ko'rsatkichlar ham meva tugish foyizida kuzatilganidek, senopopolyatsiyadagi o'simliklarning ontogenet davrlari bilan bog'liqligi kuzatilgan. Olichabuloq va Toksoyda hosildorlik gektaridan 5,661 – 9,752 kg/ga gacha, o'rtacha 8,154 kg/ga ni tashkil etgan bo'lsa, Qumbelsoy hamda Yettiulyisoyda bu ko'rsatkichlar 1,232 – 3,068 kg/ga ni – o'rtacha 2,180 kg/ga ni tashkil qilgan.

Regressiv tsenopopolyatsiya holatidagi ushbu ikkala soyda oldingi ikkalasiga nisbatan gektaridan tabiatdan olinadigan urug' hosildorligi qariyb olti kg dan ko'proq kamligi namoyon bo'layapti.

Tajriba maydonida esa, urug' hosildorligi tabiatdagidan ancha yuqoriligi 1 – jadvaldan ko'rinib turibdi.

Hisob – kitob qilinganda, gektaridan 2020 yilda 780 kg/ga, 2021 yilda 922,5 kg/ga hamda 2022 yilda 1294,8 kg/ga urug' olish mumkinligi aniqlangan. O'rtacha uch yilda 992,5 kg/gani tashkil etgan.

Albatta bu tajriba maydonidagi har m² dagi tuplar sonini ko'pligi hamda olib borilgan agrotexnik holatlar bilan izohlanadi.

Xulosa. B. multifida ning 1 ga maydondagi ekish normasi 7875 gr yoki taqriban 8,0 – 8,5 kg (PUH) ligini inobatga olsak (anashu ekish normasi optimal deb topildi bunda har 1m² da 25 – 27 tup maysa olishga erishiladi), madaniylashtirilgan qonteparning sakkiz - to'qqizinchi yilidan olinadigan urug'ni (o'rtacha 992,5 kg) qariyb 125 ga maydonga ekish mumkin.

Bu iqtisodiy jihatdan juda rentabl ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islomov B. S., Hasanov M. A Botanika. Darslik. -Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. 415-416 b.
2. Хожиматов О. К., Исламова З. Б. АНАЛИЗ АМИНОКИСЛОТНЫХ СОСТАВ, СИСТЕМАТИЧЕСКАЯ РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ВИДОВ РОДА BIEBERSTEINIA //Science and innovation. – 2022. – №. Special Issue. – С. 395-401.
3. Исламов Б. С., Исламова З. Б. БИОЛОГИЯ СЕМЯН КУЗИНИИ ТЕНЕВОЙ (COUSINIA UMBROSA BUNGE) //Современная наука: перспективы, достижения и инновации. – 2020. – С. 39-47.
4. Bustonovna I. Z. STUDYING THE BIOLOGY OF BIEBERSTEINIA MULTIFIDA DC //Thematics Journal of Education. – 2022. – Т. 7. – №. 4.
5. Bustonovna I. Z., Normuratovna M. G. BIEBERSTEINIA MULTIFIDA BIOLOGY OF DC AS A PROMISING MEDICINAL PLANT. LITERATURE REVIEW PART 2 //Thematics Journal of Education. – 2022. – Т. 7. – №. 3.
6. Islamova Z. B. THE YILD OF BEANS USING MINERAL FIRTILIZERS AND NITROGEN //Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. – 2020. – С. 234-236.
7. Rahmonov, O.; Szypuła, B.; Sobala, M.; Islamova, Z.B. Environmental and Land-Use Changes as a Consequence of Land Reform in the Urej River Catchment (Western Tajikistan). Resources 2024, 13, 59. <https://doi.org/10.3390/resources13040059>
8. Z. B, . I. (2024). Biebersteinia Multifida as a Valuable Medicinal Plant of Uzbekistan. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 4(2), 305–308. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejmmp/article/view/2474>
9. Исламова Зебинисо Бустановна, & Абдурашидов Асилбек Абдурашидович. (2024). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA- ЦЕННОЕ ЛЕКАРСТВЕННОЕ РАСТЕНИЕ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ. Новости образования: исследование в XXI

веке, 2(19), 163–167. извлечено от
<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/15026>

10. Islamova Zebiniso Bustonovna, & Murodova Dilnoza Yulchi Kizi. (2024). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA MICROELEMENT COMPOSITION AND APPLICATION IN FOLK MEDICINE. Scientific Impulse, 2(19), 45–49. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/15135>

11. Исламова, З. Б. (2024). ИССЛЕДОВАНИЕ BIEBERSTEINIA MULTIFIDA. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 26-31.

12. Islamova, Z. B. (2024). Biebersteinia Multifida as a Valuable Medicinal Plant of Uzbekistan.

13. Islamova, Z. (2023). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA DC. NI MADANIYLASHTIRISH VA MUHOFAZA QILISH. Iqlimning davom etayotgan o‘zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni o‘rganish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari, 26-30.